Tadqiqot.uz

DEVONXONA



IYUN

№ 77

TOSHKENT

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR,
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

DAVRIYLIGI: 2018-2025

RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI

ILMIY KONFERENSIYA

YANGI O'ZBEKISTON: 2025

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERIALLAR TO'PLAMI

CONFERENCES.UZ

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
2ҚИСМ

НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ЧАСТЬ-2

NEW UZBEKISTAN:
SCIENTIFIC RESEARCH
PART-2

ТОШКЕНТ-2025

УЎК 323(575.1)(063)
КБК 66.3(5Ў)я43
Й-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854
«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2024]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 61-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 29 февраль 2024 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2024. - 128 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: – илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -
Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -
Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидаги изланишлар -
Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни -
Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви -
Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети
"Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

6.Журналистика -
Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –
Самигова Умида Хамидуллаевна (“Kinder land of Asia” НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

8.Адабиёт-
PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни -
Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -
Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

11.Жисмоний тарбия ва спорт-
Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -
Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -
Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн-
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт-
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -
Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари -
Доцент Сохадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар -
Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика -
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария -
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари -
Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -
Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -
Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География-
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси
© Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Сахифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

QORAKO‘LCHILIK TARMOG’I SOHALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Nurmanov Sherzod Xo‘jayarovich
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,
“Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi assistenti.
e.nurmanov4730@gmail.com.

Annotatsiya: Qorako‘lchilik tarmog‘i joylashgan hududlarda, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlariga nisbatan ta’minot darajasi ancha past. Buni oziq-ovqat, pullik va maishiy xizmat, elektr energiya, gaz, suv ta’minoti, moddiy-texnikaviy ta’minot, korxonalarinng asosiy fondlar bilan ta’minlanganlik darajasida yaqqol ko‘rish mumkin. Chorvachiligi tarmoqlarida texnoligik va energetik jihatdan kam ta’minlangan, ularda qayta ishlovchi korxonalar va savdo tashkilotlari bilan iqtisodiy munosabatlarning sustligi, investisiya va xom ashyoni qayta ishlovchi mutaxassislarining yetishmasligi kuzatilmoqda. Hozirda ularning yashash ehtiyojlari uchun hayotiy zarur bo‘lgan ta’minot darajasi atigi 65 foiz atrofida qondirilmoqda xolos. Bunda tibbiy, maishiy, madaniy va boshqa ijtimoiy ta’minotlarning keskin kamligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: qayta ishlash, ehtiyoj, mehnat, bandlik darajasi, korxona, investisiya, xom ashyo, xo‘jalik, pullik va maishiy xizmat.

Аннотация: В районах расположения сети «Караколлик» уровень предложения значительно ниже, чем в других отраслях сельского хозяйства нашей страны. Это отчетливо видно по уровню обеспеченности продуктами питания, платными и бытовыми услугами, электро-, газо-, водоснабжением, материально-техническим обеспечением, основными фондами предприятий. Отрасли животноводства технологически и энергетически недостаточно обеспечены, отсутствуют экономические связи с перерабатывающими предприятиями и торговыми организациями, не хватает инвестиций и специалистов по переработке сырья. В настоящее время их жизненные потребности удовлетворяются лишь на 65 процентов. Установлено, что остро не хватает медицинских, бытовых, культурных и других социальных услуг.

Ключевые слова: переработка, потребность, рабочая сила, уровень занятости, предприятие,инвестиции, сырье, экономика, платные и бытовые услуги.

Abstract: In the areas where the Karakollik network is located, the level of supply is much lower than in other branches of agriculture of our country. This can be clearly seen in the level of provision of food, paid and household services, electricity, gas, water supply, material and technical support, and basic funds of enterprises. Livestock industries are technologically and energetically underserved, there is a lack of economic relations with processing enterprises and trade

organizations, there is a lack of investment and raw material processing specialists. At present, only 65 percent of their vital needs are met. It was found that medical,

household, cultural and other social services are severely lacking.

Key words: processing, need, labor, level of employment, enterprise, investment, raw materials, economy, paid and household services.

Mamlakat qishloq xo‘jalik tarmoqlari ichida ta’minlanganlik darajasi bo‘yichaqorako‘lchilik tarmog’i oxirgi o‘rinda turadi. U respublikaning iqlim sharoitiga yaxshi moslashgani, uzoq vaqt suvsiz ishlay olishi va ovqatni mutlaqo tanlamasligi bilan ajralib turadi. Xususan, qorako‘l zotli qo‘ylar yaylovlarimizda o‘sadigan deyarli barcha turdagi o‘simliklarni iste’mol qila oladi. Bu qo‘ylar kasalliklarga juda chidamli bo‘lib, kuchli va moslashuvchan tuzilishi bilan ajralib turadi va yaylovlar va qishlash joylari bo‘ylab ko‘p kilometrlik sayohatlarga bardosh bera oladi. Yumshoq go‘shtdan tashqari, ular ajoyib jun va eng muhimi, qimmatbaho qorako‘l terilarini beradi. Bu esa respublika uchun qattiq valyuta manbai hisoblanadi. Cho‘l yaylov xududlari ta’minoti buyicha xizmat ko‘rsatish sihasini yuksaltirish maqsadga muvofiqdir. Barcha tovarlar bo‘yicha aholi jon boshiga chakana tovar aylanmasi shaharlarda 2844,1 ming so‘m, qishloq joylarda esa atigi 901,7 ming so‘mni, shu jumladan, mos ravishda oziq-ovqat 1333,9 va 427,4, nooziqovqat mahsulotlari 1510,2 va 474,3 ming so‘mni tashkil qilgan yoki tovar aylanmasi qishloq joylarda 3 barobardan ham past.

Hozirgi vaqtda bazi rivojlangan davlatlarda xizmat ko‘rsatish sohasining darajasi yalpi ichki maxsulotdagi ulushi o‘rtacha 75 foizni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich mamlakatimizda 50 foiz atrofida. Mamlakat aholisining 50 foizidan ko‘prog’i qishloq joylarda yashashiga qaramay, xizmat ko‘rsatish hajmi oxirgi yilda o‘rtacha 26 foizdan oshmadi. Shuni ta’kidlash o‘rinliki, qishloqda yashovchi aholining va korxonalarning ta’minot darajasi shaharnikiga nisbatan ancha past. Bu sohani rivojlantirish uchun avvalambor agrosanoatda ishlab chiqarilgan mahsulot (xom ashyo)dan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga ishlab chiqarish texnikalarini ta’mirlash, zoovetirinariya, agrokimyo, va boshqa ta’minot va xizmatlarni rivojlantirish maqsadida infratuzilmalar aloqalarini va faoliyatlarini to‘liq shakllantirish lozim.

Amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan ishlarning asosiy natijasi shundan iboratki, qayta ishlash va xizmat ko‘rsatish sohalarida 85 ming ish o‘rni yaratilishi kutilmoqda. Demak, minglab oilalar doimiy daromad manbaiga ega bo‘lib, asrlar davomida tajriba va salohiyat to‘plangan qorako‘lchilik yanada rivojlanishiga katta turtki bo‘ladi.

Alohada shuni ta’kidlash joizki xizmat ko‘satilish hajmi bo‘yicha ham cho‘lyaylov hududlari bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan Samarqand viloyati Nurobot tumanida aholi jon boshiga chakana tovar aylanmasi 987,5 ming so‘mni tashkil qilib, Navoiy viloyati Nurato tumanidan 382,6 ming so‘mva va aholi jon

boshiga maishiy xizmat ko‘rsatish esa mos ravishda 34,6 va 26,1 ming so‘mga yoki 27,9 va 43,0 foizga kam bo‘lgan.

Cho‘l-yaylov xududlari aholisini hayotiy zarur tovarlar bilan ta’minlashni tubdan yaxshilash va xizmat ko‘rsatish sohalarini keskin rivojlantirish asosida xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash kun tartibida turgan muhum masalalardan biri hisoblanadi. Cho‘l-yaylov chorvachiligi ishlab

chtqarishiga xizmat ko‘rsatish ham bugungi kun talablari darajasida emas.

1-jadval

“Navoiy qorako‘l” birlashmasi tizimidagi shirkat xo‘jaliklarida mavjud asosiy vositalar holati (ming so‘m)[3]

T/r	Asosiy vosita turlari	Yillar								
		2013			2014			2014		
		Asosiy vositalar	Eskirishi	Eskirish darajasi %	Asosiy vositalar	Eskirishi	Eskirish darajasi %	Asosiy vositalar	Eskirishi	Eskirish darajasi %
1	Bino	4066100	1836149	2 45	4607626	1965360	7 42	4354763	1935695	5 44
2	Inshoat	2728271	672878	7 24	2582561	731162	3 28	2250785	786535	9 34
3	Uzatish moslamalari	339454	144928	7 42	319966	151332	3 47	296441	142334	0 48
4	Mashina va uskunalar	1609164	652131	5 40	1625549	687250	3 42	1608498	576108	8 35

5	Transport vositalari	1512070	837876	4	1576752	940596	7	1300410	842977	8
6	Jami asosiy vositalar	82962420	4510273	4	81490659	4820964	9	116390728	55506629	3

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, ishlab chiqarish binolari 44,5 foizga, inshoatlar 34,9 foizga, uzatish moslamalari 48,0 foizga, mashina va uskunalar 35,8 foizga, transport vositalari 64,8 foizga eskirgan. Bu asosiy vositalar

Manba: “Navoiy qorako‘l” birlashmasi ma’lumotlari asosida

jismoniy eskirgan bo‘lishi bilan birgalikda zamonoviy ishlab chiqarish talablariga javob bermaganligi sababli ishlab chiqarish samaradorligi pastligicha qolmoqda.

Yaylov qorako‘l qo‘ylarining asosiy ozuqa bazasi hisoblanadi. Ammo, yaylovlar degradasiyasi yildan yilga kuchayib bormoqda. Yaylovlarning inыirozga uchrashi oыibatida udarning yillik =osildorlik kщrsatkichlari keyingi yillarda 2,4 s/ga dan 1,84s/ga, ya’ni 21 foizga pasaygan. Hosildorlikning pasayishi qoraqalpog’iston Respublikasi yaylovlarida 27 %, Buxoro viloyatida 18,5%, Jizzax viloyatida 16,9 %, Samarqand viloyatida 10,9 %, Navoiy viloyatida 26,5 %, Qashqadaryo viloyatida 6,2 %ni tashkil qiladi. Hozirgi kunda cho‘l yaylovlariga komplek baho beradigan bo‘lsak, ularning 58%ini yaxshi yaylovlar, 17 %ini o‘rta yaylovlar, 10%ini qoniqarli va 12 %ini yaroqsiz yaylovlar toifasiga kiritish mumkin. Hisob-kitoblarga ko‘ra, tog’ oldi va yarim cho‘l hududida 40,0 ming tonna, gipsli cho‘lda 90,7 va qo‘mli cho‘l hududida 59,4ni, jami 190,1 ming tonna yaylov ozuqasi tanqisligi mavjud.

Yaylovlar inqirozini yuzaga keltiruvchi eng asosiy omil-yaylovlar xanuzgacha o‘z egasini topmaganligi natijasida ulardan uzluksiz va palapartish foydalanish bo‘lib, rasional foydalanish va mavsumiy foydalanish tizimiga to‘siqlik qiluvchi omil-ularning suv ta’minotidagi uzilishidir. Aksariyat suv manbalari (shaxtali quduqlar va skvajinalar) hamda cho‘pon uylari, ochiq va yopiq quralardir, ular bundan 50-60 yil oldin ishga tushirilgan bo‘lib, hozirgi kunda ularning ko‘pchiligi ta’mirlashga muxtoj yoki umuman ishdan chiqqan. Rivojlangan mamlakatlarning tajribalaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, yaylovlarni, quduqlarni, cho‘pon uylari, ochiq va yopiq qo‘ralar hamdaishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatuschi ozuqa tayyorlash jarayonini va sexlarini, zooveterinariya, sun’iy urug’lantirish va qo‘zilarni qorako‘l teri uchun so‘yish, jun qirqish punktlarini, mashina-traktor

parklarini, mashina va mexanizmlarni ta’mirlash ustaxonalarini va boshqa obyektlarini modernizasiyalash zarur.

Respublika “Qorako‘lchilik” uyushmasi tizimida qorako‘lchilik xo‘jaliklarida mavjud chorva binolari to‘liq, shaxtali quduqlarning 450 tasi yoki 20,0 foizi ta’mir talab hisoblanadi.

Navoiy viloyat “Qorako‘lchilik” uyushmasi tizimidaub xo‘jaliklarida madaniy maishiy va kommunal xo‘jaligida xizmat qiluvchi xodimlar oldingi yillarda 5 kishini tashkil etgan. Kiyingi yillarda esa bu turdagi xizmatlarga barham berilgan. Umumiy ovqatlanish va savdo xizmati bilan 2 kishi shug‘ullanmoqda. Xo‘jalik ichida qurulishda shug‘ullanuvchilar tahlil qilinayotgan davrda 61 kishidan 45 kishiga yoki 26,2 foizga kamaygan. Imorat inshoatlarni ta’mirlash amalga oshirilmagan va bolalar bog‘chasi faoliyat ko‘rsatmagan.

O‘rganilayotgan davrda xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar soni 2,5 foizdan 1,9 foizgacha yoki 0,6 bandga, mehnat haqi va odam soat bo‘yicha esa tegishli ravishda 2,3; 1,7; 0,6; 2,1; 1,7; 0,4 ga kamaygan.

Hozirgi kunda chorvachilikning quyi majmuasi tizimidagi ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etayotgan ishchi xizmatchilar 80-83 foizni, ishlab chiqarishga xizmat ko’rsatuvchi, maxsulotni qayta ishlovchi, savdo va ta’minot vazifasini bajaruvchi ishchi xodimlar 17-20 foizni tashkil etmoqda. Chorvalik quyi majmuasida bu ko’rsatkichlarni bosqichma-bosqich tegishli ravishda 30:70; 40:60;

50:50; 60:40; 70:30; darajada yetkazish talab etiladi.

Qorako’lchilikda ishlab chiqarishga xizmat ko’rsatuvchining muhim turlaridan biri uning ozuqa bazasini mustag’kamlash hisoblanadi. Xammamizga ma’lumki, qorako’l qo’ylari yil davomida yaylovda ozuqalanishga moslashgan (qishning qorli-qirovli kunlaridan tashqari) chorva mollarining o’ziga xos zoti hisoblanadi va ehtiyoj uchun zarur bo’lgan ozuqaning 85-90 foizi va undan ko’prog’i ham tabiiy yaylovlar hisobidan qondirish xususiyati maxsulotlarni arzon ishlab chiqarishning o’ta muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ammo o’tkazilga tahlillar natijasida shu narsa aniqlandiki, yaylovlarning katta qismi degradasiyashanganligi va suv manbalari bilan yetarli darajada ta’minlanmaganligi, hamda olingan hosildorlik yilning qanday kelishiga bevosita bog’liqligi sababli qorako’l qshylarining yaylovlardagi ozuqalar bilan ta’minlash darajasi atigi 50-55 foizligicha qolmoqda. Bir qator xo’jaliklarda esa ozuqa bilan ta’minlanganlik darajasi 25-30 foizligicha qolmoqda. Bir bosh qo’y yaylovdan 800,0 kg o’rniga 188,4 kg ozuqa olmoqda. Yaylov ozuqasi tanqisligi 611,6 kg, 500 bosh qo’yga esa 3058 sentnerni tashkil qiladi. Xo’jaliklar yetishmagan ozuqani sug’oriladigan maydonlarda yetishtirilayotgan pichan va boshqa turdagi xashak hamda omuxta yemlarni sotib olish hisobiga qoplanmoqda. Bundan tashqari xo’jaliklar har yili dag’al xashak jamg’arish, saqlash, maydalash va qayta tayyorlash hamda qayta ishlangan yem xashaklarni chorvaga berish uchun katta miqdorda moddiy va mehnat resurslari sarflashga majbul bo’lishmoqda. Shularni hisobga olgan holda chorvachilik tarmoqlarida yetishtirilayotgan maxsulotlar tannarxi oshib ketmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Папцов А.П. Современные направления развития сельскохозяйственной кооперации в экономике развития странах// Экономика сельскохозяйственной и перерабатывающих предприятий. 2010. №3.-С.79-82.
2. Асамов С.А. Получение баранины и каракули на промышленной основе. Т.1988 г.
Каюмов Ф.К. и др. Каракулеводческий подкомплекс и его роль в формировании.конъюктуры рынка. Т. «Узинформагропром», 1993. 96 с
3.Тангиров А.Э. Совершенствование продажи продукции пустыннопастбищного животноводства и модернизация отрасли.// Формирование и развитие сельскохозяйственной науки в XXI веке //с.Соленое Займище2016.С.509-514.
4.A.Tangirov, Sh.Nurmanov “Модернизация самарадорликни ошириш асоси” Монография. Самарқанд: “FAN BULOG’I” нашрёти,- 2022 йил - 164 бет
5.O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi to‘plami.